

Fizika Ta'limi Mazmunini Takomillashtirish Va Samaradorligini Oshirishning Integral Pedagogik Texnologiyalari

*Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna¹, Raxmonova Kamola Serobjon qizi²,
Inomjonova Ro'zigul Ahrorjon qizi³*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalarini amalga oshirilish holatini o'rganish va tahlil qilish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: integral pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, axborot, texnologiyalar, topshiriq.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yurtimizdagi tub o'zgarishlar, yangilanishlarni asosi deyishimiz mumkin. Zero, har yurtning buguni va kelajagi, tom ma'noda, ta'lim tizimini qay darajada rivojlangani, barkamol avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, islohotlarning natijalari bilan belgilanadi.

Barkamol yosh avlodni tarbiyalashda o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsion va yangi pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy uskunalar, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu belgilab olingan vazifalarni amalga oshirish va ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish maqsadida fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalarini amalga oshirish bugungi kundagi ta'lim islohotlari jarayonidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, fizika ta'limi jarayonida bu texnologiyalar shu kungacha foydalanilmagan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar ham olib borilmagan.

Aynan shu sababli ham fizika ta'limi jarayonida ushbu texnologiyadan foydalanish nazariy va amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishda mavjud muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan tadqiqot mavzusining respublikamiz ta'lim sohasidagi dolzarbligini ko'rsatadi.

Maqsadimiz, fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot amalga oshirishda quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari va uning amalga oshirilish holatini o'rganish va tahlil qilish.
2. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni asoslash.
3. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari amaliyotga joriy qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

¹ Qo'qon davlat pedagogika instituti "Fizika va astronomiya" kafedrasida o'qituvchisi

^{2,3} Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi



4. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalarining samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish.
5. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari qo'llash orqali o'quvchilarning egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini ishlab chiqish.
6. Fizika ta'limida integral pedagogik texnologiyalardan foydalanishga doir metodikani ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish.

Amalga oshiriladigan asosiy vazifalar.

1. Tadqiqot mavzusiga doir zamonaviy ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari qo'llashning mavjud holatini o'rganish va tahlil qilish;
3. Fizika ta'limida integral pedagogik texnologiyalari va unga bo'lgan extiyoj holatini o'rganish;
4. Fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalariga asoslangan metodikani ishlab chiqishga oid materiallarni yig'ish;
5. Tayyorlangan metodikani tajriba-sinov maydonlarida sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish;

Bundan kutilayotgan asosiy natija. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning integral pedagogik texnologiyalari va uning amalga oshirilish holatini o'rganiladi, integral pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni asoslab beriladi, integral pedagogik texnologiyalari amaliyotga joriy qilishning ilmiy-metodik asoslari, integral pedagogik texnologiyalarining samarali shakl va metodlari va integral pedagogik texnologiyalari va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тохирова, М. О. (2021). МАКТАБДА ФИЗИКА ҚОНУНЛАРИГА ДОИР ФАНЛАРАРО ТАТБИҚИЙ ГРАФИК МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШ МЕТОДИКАСИ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 626-631.
2. Otaqo'Ziyevna, T. M., & Xonzodabegim, A. (2022). YORUG'LIKNING TARQALISHI, QAYTISHI VA SINISHI MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI. *Ta'lim fidoyilari*, 22(7), 452-457.
3. Toxirova, M. (2021). Maktabda fizika qonunlariga doir fanlararo tatbiqiy grafik masalalarni yechish metodikasi. *Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari. Chirchiq davlat pedagogika instituti mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferensiyasi to'plami*, 11, 874-877.
4. Otaqo'ziyevna, T. M. (2022). METHODS OF SOLVING FINITE ISSUES OF APPLICATION OF NEWTON'S LAWS IN SCHOOL. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(07), 29-33.

